

SOYA O‘SIMLIGINING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Holbutayeva Zuxra Rayimjanovna

Chirchiq shahar Kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

O‘rinboyeva Idoyatxon Ikromjon qizi

Nizomiy TDPU 2-bosqich talabasi

E-mail: mahliyo3569orinboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada soya o‘simligining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: soya, takroriy ekin, oqsil, dukkakli

THE ECONOMIC IMPORTANCE OF SOYBEANS

Abstract : This article discusses the economic importance of soybeans

Keywords: Soybean, Repeated Crop, protein, Legume.

Soya tarkibida to‘la qimmatli nodir oqsil mavjud bo‘lib, u oziqlik qimmatini bo‘yicha xayvon oqsilidan qolishmaydi. Uning tarkibida noyob biologik faol moddalar, letsitin, xolin, A, V va E vitaminlari, makro va mikroelementlar va boshqa qimmatli moddalar mavjud. Soya tarkibida laktoza va xolesterin uchramaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, kaloriyasi va asosiy oziqlik va biologik faol moddalar tarkibi bo‘yicha ushbu mahsulot muqobil balanslangandir. Soyadan ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar - bu soya uni va soya moyidir. Soya uni qandolatchilik mahsulotlari, to‘ldiruvchilar, go‘sht, sut, pishloq o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Moyi esa oziq-ovqatda, mayonez, margarin ishlab chiqarishda ishlatiladi. RTFA (Rossiya tibbiy fanlar akademiyasi) oziq-ovqat instituti ma’lumotiga

ko‘ra soyadan tayyorlangan mahsulotlarni quyidagi kasalliklarda tavsiya etish mumkin: ateroskleroz, gipertoniya, yurak ishemiyasi, miokard-infarktini o‘kazgandan keyingi tiklanish davrida, o‘t pufagining surunkali yallig‘lanishi, qandli diabet, surunkali qabziyat, yog‘ bosish, tayanch-xarakat organlari kasalliklari (artrit, artroz), allergik kasalliklar. Chorva mahsuldorligini oshirish uchun hayvonlar soya yemi bilan oziqlantirilganda ularning sutkalik vazn ortishi ikki barobarga ko‘payadi. Bunda 100 kg tirik vaznga erishish uchun oziqlantirish davri 10-15 kunga qisqaradi, mahsulot sifati esa ortadi. Yem-xashak maqsadida soyaning kunjaraasi, shroti, uni va ko‘katidan foydalaniladi. Kunjaraning tarkibida 38,7% protein, 5,5% moy mavjud. Soya kunjaraasi va uni buzoqlar ratsionida sut o‘rnini bosadi. 1 t soya donidan tarkibida 40% protein va 1,4% moy 5 bulganda 750-800 kg shrot olish mumkin, U chorva uchun qimmatli konsentratlangan yem hisoblanadi. Soyaning ko‘kati ham qimmatli yem-xashakdir. Uning eng yuqori ozuqalik qiymati gullash va donning to‘lishi davrida yig‘ib olinganda kuzatiladi. Soya ko‘katining bir ozuqa birligiga 145-301gr protein to‘g‘ri keladi. Uning ko‘katida karotin, oqsil va kalsiy miqdori boshqali ekinlarnikiga nisbatan ancha ko‘p. Soya pichani ham qimmatli hisoblanadi: uning 1 kg da 0,47-0,54 ozyqa birligi, 110-150 g protein mavjud, Soya poxoli xam em-xashak sifatida ishlatilishi mumkin. Unda 2-4,8% protein, 1,5-2,9% moy mavjud. Sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish uchun soyaning oziq-ovqat sanoati va chorvachilikda ishlatilmaydigan chiqindilaridan turli maxsulotlar - qurilish plitalari, matolar, sun‘iy o‘g‘itlar, soya moyi ishlab chiqarish qoldiqlaridan bo‘yoq, sovun, laq qora bo‘yoq, rezina maxsulotlari ishlab chiqarish mumkin. Texnika ekini sifatida soya sovun, lak-bo‘yoq, to‘qimachilik kimyo va sanoat tarmoqlarida qo‘llaniladi. Soyadan plastmassa, plyonka, linoleum, texnik moy va boshqa ko‘pgina maxsulotlar tayyorlanadi. Soya etarlicha yuqori sifatga ega, ya‘ni oqsil va moyga boy bo‘lsa-da, bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga keng tadbiiq etilmagan. Uning turli navlarida 57% gacha parxez oqsil, engil xazm bo‘luvchi to‘yinmagan moy va 30% gacha uglevodlari (asosan mono- va disaxaridlar) mavjud, ularda biologik faol moddalar va vitaminlar: A, B1, V2, V3, V6, E, S, D, Q RR va boshqalar, shuningdek Mp, Mo, Mg, V, G‘e kabi mikroelementlar mavjud. Ularning barchasi kundalik xayotimiz va chorva ratsioni uchun

juda muximdir. Bundan tashqari soya sun'iy sut va sut mahsulotlari olinadigan yagona qimmatli o'simlikdir. Soya uni non-bulka va kolbasa mahsulotlariga qo'shiladi va bu mahsulotlarning oziqligi, ta'm sifatlari va quvvatini oshiradi. Soya mahsulotlari diabetda tavsiya etiladi. Soya moyi - bu yuqori to'yimli ozuqa, hazm bo'ladigan moyning to'yimliliği 9290 kkalga teng. Soya donida uglevodlar 35% gacha bo'lishi mumkin. Soyadan moyi ajratib olingan yormasida erimaydigan karbon suvlarining miqdori 17%, eriydigani 21% ni tashkil qiladi. Moyi olingan shrotning tarkibida uglevodlarning miqdori: saxaroza-5,7; raffinoza-4,1; staxioza-4,6; arabinan - 1,0; arabinogalaktan- 8-10 va nordon polisaxaridlar-5-7% ni tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. M.Sattarov, R.Saitkanova, N.Otamirzayev, B.Qodirov, H.Idrisov, N.Tuyg'unov, B.Qalandarov, M.Ahtamov, M.Hayitov, M.Raxmanov”Samarqand viloyatida soya yetishtirish agrotexnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma” Toshkent – 2017
2. Matniyazova, H. K., Nabiyev, S. M., Abzalov, M. F., Kholiqova, M. A., & Yuldashev, O. H. (2019). Some Physiological Indicators of Domestic and Foreign Soybean Varieties under Different Water Regimes. *International Journal of Science and Research*, 8(9), 389-392.
3. J. Shavkiyev¹, A. Azimov¹, S. Nabiyev¹, S. Khamdullayev¹, B. Amanov Kholikova, M.A, Matniyazova, H., & Yuldashov, U. Comparative Performance And Genetic Attributes Of Upland Cotton Genotypes For Yield-Related Traits Under Optimal And Deficit Irrigation Conditions
4. Azamatovna, K. M., Khudoybergenovna, M. K., & Sayfullayevna, I. G. (2020). Morpho-economical Indicators of Some Local and Foreign Soybean Varieties Planted as Main Crops. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
5. Xoliqova, M. A., Matniyazova, H. X. (2020). Asosiy ekin sifatida ekilgan ayrim mahalliy va xorijiy soya navlarininghosildorlik ko'rsatkichlari. *Academic research in educational sciences*, (1), 291-296.

6. Xoliqova, M. A., Matniyazova, H. H., & Azimov, A. A. (2020). Takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning ayrim mahalliy va xorijiy navlarining morfoxo'jalik ko'rsatkichlari. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, 110. Uzbek Scholar Journal Volume- 11, Dec., 2022 www.uzbekscholar.com 21 | Page 6. Matniyazova, H. X., & Nabiev, S. M. (2021).
7. Turli suv rejimi sharoitlarida soya navlarining barglaridagi umumiy suv miqdori va suv ushlab xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2(11), 1284-1290.
8. Xoliqova, M. A., Matniyazova, H. X., & Mavlyanova, G. D. (2022). Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida turli rivojlanish fazalarida barglaridagi xloroplast pigment miqdorini o'rganish. Academic research in educational sciences, 3(5), 372-381.
9. Mochekhra, K., & Khilola, M. (2022). To study the amount of chloroplast pigment in the leaves of local and foreign soybean varieties grown as a repeat crop in the conditions of Navoi and Samarkand regions. Universum: ximiya i biologiya, (2-2 (92)), 36- 42.
10. Raximov, A. K., Boltayeva, M. D., & Kholikova, M. A. (2021). Morphological indicators of soybean varieties planted in combination with corn. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1151-1155.
11. Xoliqova, M. A., Matniyazova, X. X., & Hamroyev, R. J. (2021). Soya o'simligining ahamiyati va takroriy ekin sifatida ekilgandagi afzalliklari. Academic research in educational sciences, 2(1), 1007-1014.
12. Xolikova, M. A., Matniyazova, X. X., & Ismagilova, G. S. (2020). Takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining maysa davridagi morfologik kursatkichlari. Academic research in educational sciences, (2), 162-167.
13. Xoliqova, M. A., & Matniyazova, H. X. (2019). Soya o'simligining botanik va biologik tasnifi hamda ahamiyati. Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta'lim: Muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar To'plami, 2, 318-319.

14. Navoiy va Samarqand viloyatlari sharoitida yetishtirilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida bargidagi xloroplast pigment miqdorini o‘rganish usullari.T

M. A. Xoliqova H. X. Matniyazova Uzbek Scholar Journal 1 (5), 14-23

15. A.K.Raximov,M.A.Xoliqova,X.X.Matniyazova “Takroriy ekin sifatida makkajo‘xori o‘simligi bilan birgalikda ekilgan soya navlarining morfoxo‘jalik ko‘rsatkichlari” O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi 1 (1 (85) 2021), 10-13

16. M. A. Xoliqova “Navoiy va Samarqand viloyatlari sharoitida yetishtirilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida bargidagi xloroplast pigment miqdorini o‘rganish usullari” Uzbek Scholar Journal Volume- 11, Dec., 2022 14-24 bet

